

“QOBUSNOMA” ASARIDA ILGARI SURILGAN IJTIMOY-FALSAFIY G’OYALAR TAHLILI

Qorako’z To’lanboyeva Muxtorjon qizi

TDSHU Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Jasur Sulaymonov

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent, Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası mudiri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotidagi salmoqliy o’rin egallagan “Qobusnoma” asarida ifodalangan axloqiy, ijtimoiy-falsafiy masalalar muhokama etiladi va ularning bugungi kundagi ahamiyati ochib beriladi.*

Tayanch tushuncha va iboralar: *Kaykovus, axloq, davlat boshqaruvi, inson va jamiyat, adolat, nafs, umrning fasli, juvonmardlik, ilm, kamolot, kishi ruhiyati, tarbiya*

KIRISH

„Qobusnoma” Mozandaron (Tabariston) hukmdori Shams ul-Maoliy Qobusning nabirasi Kaykovus (asl ismi Unsur al-Maoliy) tomonidan XI asrning 82–83-yillarida fors tilida yozilgan asar.¹⁹ Asar Sharq, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-falsafiy unsurlarni o’z ichiga olgan asar bo’lib, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi hamdir.

Kaykovus ushbu nasihatnomani o’z o’g’li Gilonshohga atab “Mav’izatnomai Kaykovus” (tarjimasi: “Kaykovusning nasihatnomasi”) asarini yozgan, shu boisdan kitobdagi ko’plab qismlarida „ey farzand” kabi chaqiriqlar uchraydi. Ushbu asarni bobosi podshoh Shams ul-Maoliy Qobus sharafiga “Qobusnoma” deb nomlagan. Unda bitta kirish qism va 44 bob o’rin egallagan.

Kaykovus shuningdek, bola tarbiyasi, harbiy yurishlar urf-odatları, boshqaruv, ijtimoiy odob-axloq qoidalari va o’sha davrning umumiy bilim va ko’nikmalari kabi mavzularni ham yoritib bergan.

Kitobning asosiy ko’lami Gilonshohga atalgan bo’lsa-da, Kaykovus kirish so’zida bu asardan boshqalar ham foyda ko’rishlari mumkinligini tushuntiradi va kitobni hamma uchun tushunarli qilishga harakat qilgan. “Qobusnoma”ning beshta qo’lyozma nusxasi ma’lum bo’lib, ularning tarkibida farqlar mavjud.

Ushbu kitob zamonaviy fors tiliga yaqin oddiy matnga ega va kitob davomida nasihatlar, maqollar, hikoyalar va she’rlar bir-biri bilan chambarchas bog’langan. “Qobusnoma”ning aksariyati oddiy nasrda yozilgan bo’lishiga qaramay, matnning o’rtasida, asosan Kaykovusning o’zi tomonidan yozilgan to’rtlik ham mavjud. Biroq, bu she’rlar uning nasriga qaraganda sifatsizroq, deb qaraladi.

Kitobda arab tili kam qo’llaniladi va muallif bu tildan faqat texnik va aniq atamalar uchun foydalanadi. Kitobda arab tilida faqat bitta bayt va tabariy tilida bitta bayt mavjud.²⁰

¹⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobusnoma>

²⁰ <https://en.wikipedia.org/wiki/Qabus-nama>

A.Y.Krimskiy, Vasiliy Bartold, Yevgeniy Bertels kabi sharqshunos olimlar asarni o'rganish ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. 1860-yilda o'zbek tiliga ilk marotaba shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. Asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi shahzoda Feruz Muhammad Rahimxon II topshirig'i bilan bo'lgan.

Uning qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida qo'lyozmalar fondida va Sankt-Peterburgdagi "Saltikov-Shchedrin" nomli kutubxonada saqlanadi. Asarning 1994-yilgi nashri muqaddima va 44 bobni o'z ichiga olgan. Ushbu nashrga Ogahiyning qo'lyozmasi, Yevgeniy Bertelsning rus tilidagi tarjimasi va Said Nafisiyning Tehron nashri asos qilib olingan.²¹

„Qobusnoma“ asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad (s.a.v)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukur qilmoq haqida bo'lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odo-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi.

METODLAR

Tahlillar davomida asardagi boblar kesimida ijtimoiy-falsafiy jihatlarni, axloqiy, siyosiy jarayonlarni atroflicha ko'rib o'tiladi. Shu bilan birga, har bir bobning umumiy mazmunidan chiqmagan holda davrlar nuqtai nazari bo'yicha qiyoslar keltiriladi, muallifning o'zi tarafidan kiritilgan bob mavzusiga doir bo'lgan hikoyatlarning mazmuni ochib beriladi. Umumiy qilib aytganda, germeneytik, tarixiy-falsafiy, aksiomogik, komperativ metodlardan keng foydalaniladi.

NATIJALAR

„Qobusnoma“ nafaqat sharq mumtoz adabiyotida, balki axloqiy, ijtimoiy-falsafiy g'oyalarda muhim ahamiyatga ega. Sababi shundaki, Sharq an'analarga sodiqlik o'laroq, farzand tarbiyasi, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, ilm olmoqlikka alohida e'tibor qaratgan va bu davom etib kelmoqda. Insondagi axloqiy tamoyillarni anglab yetish, ularni kelajak avlodga adolatli tarzda yetkazib bermoqlik katta mas'uliyat va chinakam burchdir.

Quyida xususan ko'rib chiqiladigan asar ham aynan shu jihatni o'zida mujassam etgan qo'llanmadir. Undagi ifodalangan har bir jumlar bizga sodda til orqali hayotdagi butun jarayonlarni anglashimiz va farqlay olishimiz uchun xizmat qila oladi. Har bir zamonda va makonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy masalalar va ularga qay tarzda amal qilishlik asoslari ko'rib o'tiladi.

MUHOKAMA

Inson va jamiyat munosabatlari.

Muallif butun umri davomida orttirgan bilimlari va tajribalari asosida har bir o'qiguvchiga murojaat qilar ekan, insonning jamiytdagi yashashlik shartlari, o'zaro ijtimoiy munosabatlarda xulqni, ilmni, hunarni, jo'mardlikni alohida keltirib o'tadi.

²¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobusnoma>

Islomiy e'tiqod an'analarga ko'ra, asarning ilk bobi Alloh taoloni tanishgan bag'ishlanib, „Parvardigori olamni tanimoq zikrida” deb nomlangan.

Kitob bu tarzda nomlanishi va izohlanishi ham bejizga emas. Har bir narsaning ahamiyati va mavjudlik sababi bevosita Yaratuvchi va uni tanimoqlik bilan bog'liqdir. Inson hayotdagi o'z vazifasini va asl maqsadini ongida qabul qilishi uchun ham muallifning fikriga ko'ra, Allohni tanish va Unga chin e'tiqod qilish kerakligini ta'kidlaydi.

Muallif ham har ishni tutishda yoki bilishda asl Mohiyatni tushinib yetishligi eng birinchi navbatda o'zini tanishdan boshlanmog'i kerak. Asarning oltinchi bobi–„Hunar afzunlig'i (ortiqlik) bila baland qadr va oliytab' bo'lmoq zikrida” deb nomlanadi.

Ushbu bobda keltirilishicha, hunarsiz kishi foydasizdir, hech kimga naf keltirmaydi. Ayni bu jarayonni quyidagicha o'xshatish bilan izohlaydi: „Bilursanki, xori mug'ilonning (tikanli buta) tani bordur, ammo soyasi yo'qdur.

Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur”.²² Jamiyatda yashovchi inson o'z borligi bilan boshqalarga foyda keltirmog'i hunar orqali bo'lsa, manfaatli bo'ladi.

Ya'ni har kim ham ilm orqali ijtimoiy tizimga ta'sir eta olmasligi mumkin, bunday hollarda inson biror bir hunarni o'ziga kasb qilmog'i lozim. Bundan tashqari, hunarli bo'lmoq hattoki oliynasab kishilar uchun xaloyiqni izzat va hurmatiga sazovor etguvchi sababdir deb ifodalanadi.

Inson jism-u tanini nasab gavhari bilan birgalikda hunar ziynati bilan bezamog'i o'rinlidir, bu muvozanatni tuta olmoqlik esa aql va donoshlik belgisidir. Shuningdek, hunarlar ichida „so'z hunari” yaxshiroq ekanligi ta'kidlanadi. Insonning boshqa jonivorlardan farqini 10 xil daraja bilan ko'rsatadi.

Bu o'n daraja insonning badanida hamisha mavjuddir: beshi tashida, beshi ichida. Tashdagi besh daraja zavq- sezgi retseptorlari deb ataladi. Ichdagi besh darajaning yuksagi so'zlamoqdir.

Bu ifodani gnoseologik jihatdan ham tahlil etishimiz mumkin, ya'ni bilishning hissiy va aqliy darajalari sodda shaklda qiyoslangan.

So'z esa ularning bog'lovchi muhim vositadir. Undan foydalanishda ehtiyotkor bo'lishga undaydi, chunki so'z qanchalik yaxshi bo'lmasin, uning o'rnida so'zlanmasa ko'proq zahmat yetkazadi.

Kaykovusning asosiy g'oyasi — inson jamiyatda o'z o'rnini topishi va foydali shaxs bo'lishi kerakligi. Undagi ham bo'lgan xislatlar butun jamiyat uchun ta'luqli bo'lishi mumkin ekanligini uqtiradi. U insonni mehnat, bilim va axloq orqali kamol topishga da'vat etadi. Muallifning fikricha, odamning asl qadri uning aql-zakovati, odobi va saxovatida namoyon bo'ladi, nasl-nasab emas, balki amal va xulq insonni ulug' qiladi.

Axloq va tarbiya

Ushbu jihatlarni tahliliga kirishilganida, „Ota va ona haqini bilmak zikrinda” nomli bobida alohida keltirib o'tiladi. Muallif ota-onani izzat va hurmat qilmoqlikni vojibdur, chunki shaxsning asli ota va onadir, deya ifodalaydi.

²² Qobusnoma, „O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent —2017. B. 49

Ota onaning vazifasi farzandni parvarish qilish va yaxshilik o'rgatishdir. Ularni haqqiga rioya qilishlikni diniy tarafdin tashqari aqliy jihatdan ham dalillar keltiradi.

Ota va ona insonning asli ekan, ularga nisbatan kamchiliklar qilsa, hayotda hech yaxshiliklar ko'rmasligini aytadi, sababi, har bir inson aslining yaxshiligini bilmasa, o'zganing ham yaxshiligini bilmaydi. Haqiqatki, odamzotning shaxs sifatida kamolotga yetishi va jamiyatda o'rin egallashi ota-onaning beminnat va qarshiliksiz xizmatlarining natijasidir.

Ularning haqlarini ado etish hech bir o'lchamga teng kela olmaydi. Yana Kaykovus keltiradiki, odam meva bo'lsa, ota-ona daraxtdir. Daraxtni qancha yaxshi parvarish (tarbiya) qilsang, shuncha yaxshiroq va shirinroq meva beradi. Ularga qilingan har bir munosabat o'zing uchun xizmat qiladi, kun kelib o'z farzandlarindan qaytadi. Ota-onaning borligi kishiga rizqdir deb ta'kidlanadi.

Shuningdek, yaxshilik qilish insonning tarbiyasida muhim ahamiyatga ega omil sifatida akslanadi. Hattoki o'z holidagi g'amlarini ham insonlarga zahmat keltirsa aytmalik afzaldir, chunki bu yaxshilikdan emas. O'zidan boshqalarga ham o'ziga ravo ko'rgani kabi adolatli munosabatda bo'lishi chinakam insoniylikdir.

Asarda axloqiy poklik, odob, hayo, adolat va sabr fazilatlari alohida o'rin tutadi. Kaykovus yoshlarni ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom, do'stlik va halollik ruhida tarbiyalashga chaqiradi. Unga ko'ra, inson hammaga yaxshilik qilish, nafsni tiyish va adolatli bo'lish orqali ma'naviy barkamollikka erishadi.

Suxandonlik borasida so'z yuritilar ekan, insondagi bu xususiyat jamiyatdagi yuksak axloqni namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi. Suxandonning quroli, asbobi bu so'zdir. Kaykovus so'zni va insonlarni (xaloyiqni) nisbat o'laroq to'rt guruhga ajratadi.

Birinchi toifa– biladi va bilganini (bilishini) ham biladi. Bu olimdir. Ya'ni bilguvchi va bilishidan xabardor bo'lgan kimsaga nisbatan shu zaylda ta'rif beriladi, uning darajasi olimdir. Bunday shaxslarga tobe bo'lmoq kerak deyiladi. Ikkinchi toifa– bilmaydi va bilmasligini biladi.

Bu qobildir, unga o'rgatish kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, o'z holidan xabardor bo'lgan, anglagan kishi sifatida gavdalanib, bu kabi toifaga bilmaganlarini uqtirish emas, balki o'rgatish zarur. Uchinchi toifa– biladi, lekin bilishini bilmaydi.

U uyqudadir. Ongli ravishda o'z bilganlarini yoki mavjud bo'lgan imkoniyatlarini, zehnida, fitratida zohir bo'lgan narsa va hodisalarni tushunib yetmaslik chindan ham uyqu holati kabi. Muallif da'vatiga ko'ra, ularni bedor qilmoq kerak. To'rtinchi toifa esa bilmaydi, ammo bilmasligidan ham bexabar (bilmaydi). U johildir. Bu toifa vakillari butun bir jamiyatga xavf keltirishi mumkin. Sababi ongda shakllangan har qanday narsa voqelikdan in'ikos sifatida vujudga kelar ekan, o'z mavjudligidan xabarsiz bo'lishlik mag'lubiyatdir.

Mehnat va ilmning qadri

„Qobusnoma“da ilm va kasb egallash eng yuksak qadriyat sifatida talqin etiladi. Kaykovus o'g'liga: „Ilm o'rgan, chunki bilim bilan jaholat zulmatini yoritursan.“ Unga ko'ra, ilm — insonni jaholatdan, mehnat esa kambag'allikdan qutqaradi. Bu g'oya Sharq falsafasida keng tarqalgan „ilm — nur, jaholat — zulmat“ tamoyiliga hamohangdir.

Kaykovus ilm va kasb-hunarga ta'rif berar ekan, ularni to'g'ri anglashlik talabi bilan mohiyat va vazifasini keltirib o'tadi. Uning fikriga ko'ra: „Ilmning sifati uch vajhdandur: yo bir pisha (kasb, hunar) bila bog'lang'on ilm, ilm bila bog'liq pisha (kasb), xayr va dalolatga taalluqli odat”.²³

Buni bugungi kun nuqtai nazari bilan turli fan sohalari va kasblardagi bog'liqliklarni tushunishimiz mumkin. Shuningdek, asarda ilmni o'ziga kasb etishlik sharti ham alohida ahamiyatga ega.

O'z so'zlashlik, uzoqni ko'zlashlik xislatlari har bir tolibi ilmga jamiyatda, jamoat orasida o'z o'rnini yuksak o'rinlarda ega bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi.

Muallif o'z zamonasining ko'zga yaqin bo'lgan kasblarini sifat va ahamiyati bilan izohlaydi, asosiy vazifalarini keltiradi hamda o'sha kasblarga ta'luqli ilmlarni tushuntiradi.

Adolat va davlat boshqaruvi

Qirq to'rtinchi bob– “Juvonmardlik zikrida” keltirilishicha, barcha shaxsda uch narsa: aql, rostlik, juvonmardlik bilan xushnud. Ular orasida juvonmardlik har bir er kishida bo'lishligi yuksak fazilatdir. Shu o'rinda, Kaykovus olamdagi narsalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va insonning vujudi o'sha narsalar bilan ta'sirda ekanligini kichik hayotiy isbotlar bilan ko'rsatadi va axloqiy sifatlar bilan bog'laydi.

Chunki bularni tushunib yetish orqali hayotdagi pozitsiyani va vazifani anglay olish osonlashadi. Juvonmardlik nafaqat jismoniy jasorat, balki axloqiy, ruhiy va ma'naviy poklikni ham o'z ichiga oladi. Bu tushuncha Sharq axloq falsafasida juda muhim o'rin tutgan. U insonning ichki dunyosi, halolligi, vafodorligi, g'ururi, saxovati bilan bog'liq. Bu davlat boshqaruvi hamda adolatni ta'minlash masalalarida muhim omil hisoblanadi.

Asarda shohlik va rahbarlik masalalari ham falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifningcha, adolatli hukmdor xalqning himoyachisidir.

U hukmdorni zulm, kibr va haddan oshishdan qaytaradi, chunki adolat — davlatning poydevori: “Podsho adolat qilsa, xalq tinch yashaydi, zolim bo'lsa, saltanati qulaydi.”

Hayot falsafasi va dunyoqarash.

Kaykovus hayotning o'tkinchiligi, dunyo lazzeatlarining vaqtinchaligini eslatadi.

U kishini moddiy boylik ortidan quvmaslik, balki ruhiy kamolot sari intilishga chaqiradi.

Bu fikr islomiy-axloqiy falsafa va sufiyona dunyoqarash bilan uyg'unlashadi. „Qarilik va yigitlik sifati zikrida” deb nomlangan to'qqizinchi bobida nuallif o'g'liga qarata hayotning o'tkinchi havaslariga aldanib, yigitlik davrini behuda o'tkazmaslikni, umrni kechirar ekan, doim tenglikni bilishligini ta'kidlaydi.

O'ninchi bobida esa Vaqtni aniq bir maqsad bilan qilinuvchi ishlar uchun tayin etilishlik aqlli kishilarga xos ekanligini keltiradi.

XULOSA

²³ Qobusnoma, „O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent —2017. B. 66

Inson borliqdagi sodir bo'luvchi hodisalarning barchasi bilan ta'sirlashuvchi mavjudotdir. U doimo tadrijiy rivojlanishda va o'zgarishlarning markazida turadi. Bu esa ijtimoiy masalada axloqni taqazo etadi.

Chunki inson ijtimoiy hilqat. Jamoavlikning ilk ko'rinishlari vujudga kelgan davrlarda ham bashariyat o'z oldiga o'sha davriga mos tarzda ijtimoiy, axloqiy jihatlarni asosiy o'ringa qo'ygan. „ Qobusnoma “ asari ham yillar davomida ahamiyatini yo'qotmaydigan, doim zarurat bo'lgan axloq va hayot falsafasiga bag'ishlangan.

Unda davr o'zgarsa ham xususiyatini yo'qotmaydigan dasturulamallarni uchratishimiz mumkin. Har bir ijtimoiy munosabatlarni izchillik bilan izohlar ekan, davr ruhiga mos bo'lgan namunalarni ham keltiradi.

Ma'lumki, inson shaxsiyati o'zidan avvalgi mavjud bo'lgan bilim va tajribalarga asoslangan holda sayqallanadi. Bu esa isboti o'zi bilan bo'lgan masala kabidir. Kaykovus asarni yozishda tadrijiylikka amal qiladi, ya'ni o'zidan avvalgi va o'z zamonasining barcha ilmlarini puxta o'rgangan, ilm sohiblarini asarlari bilan yetarlicha tanishib chiqqan. Aynan shu tajribalar va hayotiy ko'nikmalar asosida o'zidan ajoyib meros qoldirdi. Ushbu asar Kaykovusning o'g'liga bag'ishlangan bo'lishiga qaramay, muallifning e'tirofi bo'yicha, barcha farzandlarga qo'llanilishi mumkin. Tarbiya jarayonlarida, shaxsni tarbiyalashda hamma uchun barobar xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobusnoma , „ O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent –2017
2. К. Назаров, Билиш фалсафаси, „Ўкитувчи”, Тошкент - 2005
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Qabus-nama>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qobusnoma>
5. <https://tarbiyaviy.uz/asos/marifiy/alloma/kaykovus>
6. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/qobusnoma-da-nutq-odobi-masalalari>
7. <https://zenodo.org/records/>